



UDK:811

Nasibaxon MAMATJANOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti iniversiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: nasibakhon76@gmail.com

Professor, F.f.d. N.Jabborov taqrizi asosida

"HISTORY OF FERGHANA" BY ISHAQ KHAN IBRAT

Annotation

In this article, Ishaq Khan Ibrat's work "History of Fergana", the specific features of views such as the attitude of khans and begs to historical events are highlighted. Also, the work contains conclusions and suggestions on how to convey to the future generation about the way of life, culture and life of our ancestors, and to encourage them to draw conclusions from it.

Key words: Ishaq Khan Ibrat, works of Ishaq Khan Ibrat, "History of Fergana", spiritual and moral views, Islamic historians, enlightened poet, Qubo, climate and countries.

«ИСТОРИЯ ФЕРГАНЫ» ИСХАК-ХАНА ИБРАТА

Аннотация

В данной статье Исхак-хана Ибрата «История Ферганы» выделены особенности взглядов, таких как отношение ханов и беков к историческим событиям. Также в работе содержатся выводы и предложения о том, как донести до будущего поколения об образе жизни, культуре и быте наших предков и побудить их сделать из этого выводы.

Ключевые слова: Исхак-хан Ибрат, произведения Исхак-хана Ибрата, «История Ферганы», духовно-нравственные воззрения, исламские историки, поэт-просвещенный, Кубо, климат и страны.

IS'HOQXON IBRATNING "TARIXI FARG'ONA" ASARI

Аннотация

Ushbu maqolada Is'hoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asari, tarixiy voqealarga xon va beklarning munosabati kabi qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, asarda o'tmish ajdodlarimizning yashash tarzi, madaniyat va turmushi haqida kelajak avlodga yetkazish, ularni shundan xulosa chiqarishga undash bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Is'hoqxon Ibrat, Is'hoqxon Ibrat asarlari, "Tarixi Farg'ona", ma'naviy-axloqiy qarashlar, islom muarrixlari, ma'rifatparvar shoir, Qubo, iqlim va mamlakatlar.

Kirish. Is'hoqxon Ibrat chin qalbdan o'z xalqining ilmi, ma'rifatli bo'lishini istadi va bu istagini amalga oshirishda bilimni, kuch-g'ayratini ayamadi. 1916-yili yozilgan "Tarixi madaniyat" asarida xabar berishicha, keyingi 20- yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar va 30 yillik nazmiy ijodining majmui bo'lmish "Devoni Ibrat" she'rlar to'plamini yaratdi. XIX asr oxiridayoq dunyo kezib, ilm o'rganib, bir nechta tillarni puxta bilgan poliglot, shoir, pedagog, publitsist, tilshunos sifatida Is'hoqxon to'ra Ibratning faoliyatini o'rganish, yosh avlodga unga nisbatan cheksiz faxr iftixor tuyg'usini shakllantirish va shu orqali ularni vatanparvar, fidoyi shaxs etib tarbiyalash lozim. Ayniqsa, Is'hoqxon Ibratning boy adabiy va ilmiy merosini yoshlarga o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyat va ma'rifat ruhida tarbiyalash, Ibrat ijodini o'rganish orqali talaba yoshlar adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, farzandlarimizning ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga hissa qo'shadi. Albatta, mamlakatimiz dunyo tamadduni va ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalar, aziz-avliyolar yurti sifatida shuhrat qozongan. Ajdodlarimiz bebaho merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish doimiy e'tiborda. Jumladan, Sh. Mirziyoyev 2016-yil 2-noyabr kuni Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda buyuk taraqqiyparvar va ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibratning xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi yo'lidagi beqiyos xizmatlariga ehtirom ramzi sifatida uning nomini abadiylashtirish, u kishiga atab zamonaviy bog' yaratish, yodgorlik majmuasi va "Ibrat maktabi"ni tashkil qilish tashabbusini ilgari surdi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi "Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida

atoqli ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibrat yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi 208-sonli qarori qabul qilindi. Ma'lumot uchun, Is'hoqxon Ibrat muzeyi To'raqo'rg'on tumanidagi madaniy meros obyekti bo'lgan G'oyibnazar Qozi madrasasi negizida tashkil etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Is'hoqxon Ibratning tilshunoslikka oid "Lug'ati sittati alsina", "Jome' ul-xutut" asarlaridan tashqari tarixshunoslikka oid "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat" va "Mezon uz-zamon" asarlari bizgacha yetib kelgan. Ibrat bu asarlarni yaratishda rus va Yevropa sharqshunoslari asarlaridan bahramand bo'ldi, ular bilan hamkorlik qildi. U atoqli tarixchi olim sifatida o'z ilmiy-tarixiy asarlarini yaratishda Sharq tarixnavislari asarlarini o'rganib, ulardan foydalandi. Rus va Yevrova sharqshunos olimlarining o'nlab ilmiy asarlaridan, ko'plab tarixiy manbalardan istifoda etdi. Kerakli o'rinlarda ulardan ko'chirmalar keltirdi. Muallif mazkur asarlarini yaratishda G'arb sharqshunoslarining tarixiy asar yozish metodini qo'lladi. Bu, ayniqsa, uning asar yaratish uslubida, tarixiy voqealarga munosabatida yaqqol ko'rinadi. Is'hoqxon Sharq tarixchilarining ilmiy asarlarini o'rganar ekan, bu asarlarga va ularning mualliflariga tanqidiy munosabatda bo'ldi. Ayniqsa, o'z salafllari tomonidan xonlarga bag'ishlangan, ularning qonli urushlarini maqtab, mubolag'a qilib yozilgan asarlarni, xonlarga va beklarga bag'ishlab yaratilgan dostonlarni tanqid qildi. Shu nuqtai nazardan, Ibratning quyidagi so'zlari uning tarixiy asar yaratishdan ko'zda tutgan maqsadini, estetik prinsipini yaqqol ifodalaydi: "Tarixni islom muarrixlari aksariyat ila hamma tarixlari umaroiy bo'lub, jug'rofiy, madaniy yoki sanoiy bo'lmay, faqat xonlarning urushlari birla

ado qiladurlar. Binobarin, men bu tariximda mubolag'aga oshurub, maqtab va aqlning kosasiga sig'maydurgan so'zlarni olmay, ba'zi xurofiy so'zlarni yozmay, to'g'ri va aql kosasiga sig'adurgan so'zlarni oldim va ajnabiy tarixlardan ko'proq yozdim... Bu "Tarixi Farg'ona"ni yozmoqdin maqsad izhori hunar yoki musannif qatoriga kirmak yoki ta'mai tiriklik yo'lidan bo'lmay, balki bani basharning tiriklik qilish, sanoat va ziroatlari, madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga ko'rsatmak, bizdan keyin keladurganlar o'tganlarning turmush va qilmush va bilmush ishlaridan ibrat olsun. O'z zamoni bilan o'tgan zamonni tarozu qilib, vaznini bilsun uchun va ham ilmi tarix bir ilmi ta'rifdur". (Ibrat. Tarixi Farg'ona. O'z FASHI Qo'lyozmalar fondi, inv.№11080, 3-4-betlar). Olimning tarixiy asarlarga bunday to'g'ri munosabatda bo'lishi, xalq hayotini haqqoniy aks ettirishga intilishining asosiy omillaridan biri muallif Sharq tarixnavislari bilan bir qatorda rus va Yevropa sharqshunos olimlarining asarlarini chuqur o'rganganligidadir. Rus va Yevropa tillarini ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat sharqshunoslarning asarlarini originalda o'qigan. Ibrat o'z ilmiy asarlarini yaratishda rus sharqshunoslari V.V.Radlov, V.V.Bartold, G.Vamberi asarlaridan foydalandi, bu asarlarga o'z munosabatini bildirdi. Ibrat o'zining tarixiy asarlarini yaratishda V.Nalivkin asarlaridan, ayniqsa, "Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva" (Qozon, 1886) asaridan keng foydalandi, ko'p o'rinlarda unga tanqidiy munosabatda bo'ldi. U ilmiy-tarixiy asarlarini yaratishda katta mas'uliyat his qildi, tarixiy voqealarni, faktlarni obyektiv baholashga alohida e'tibor berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. I.Ibratning hayoti va faoliyatiga oid U.Dolimov, S.Rustamov, T.Malik, Sh.Yusupov, N.Jabborov, D.Ziyoyeva, A. Abdunabiyev, Ya.G'affarov, K.Vohidova, M.Saribayeva kabi olimlar tomonidan pedagogik, falsafiy, tarixiy naqta nazardan o'rganilgan manbalarni uchratish mumkin. Xususan, M.Abdullayevaning "Is'hoqxon Ibrat – serqirra ijod sohibi", A.So'fizoda "Istiqlol qahramonlari. Ibrat. Tanlangan asarlar", "Is'hoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibrat. Farg'ona tarixi", U.Dolimov "Is'hoqxon Ibrat" va "Is'hoqxon Ibrat. Istiqlol fidoyilari", "Is'hoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona" va boshqalar. Ya.G'affarov tomonidan yozib qoldirilgan, Ibrat zamondoshlari xotiralari, qarindosh-urug'lari, shogirdlari bilan suhbatlar asosida to'plangan faktlar ham Ibrat hayotining so'nggi davrlariga oid muhim manbalar hisoblanadi. M.Sariboyeva «Ibratning ibratli hayot yo'li» nomli maqolasida ma'rifatparvar, fidoyi shoirning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar yangi manbalar asosida yoritilgan hamda uning ayrim asarlarining ta'lim-tarbiyaviy jihatlari tahlil etilgan. Is'hoqxon Ibratning «Mezon uz-zamon» (Zamon o'lchovi) asari 2001-yilda yapon olimlari bilan hamkorlikda nashr etilgan bo'lib, undagi to'qqizta mezon bugungi odamlar uchun ham katta ahamiyatga ega. 2000-yilda esa shoir qalamiga mansub she'rlari yirik so'zboshi bilan Turkiyada turk adabiyoti antologiyasi seriyasida nashr etilgan. Professor U.Dolimovning "Milliy uyg'onish pedagogikasi" asarida Ibrat haqida va uning ijodini xorijdagi tadqiqi haqida qimmatli fikrlari berilgan. Yana U.Dolimov va N.Jabborov hamkorlikda adib asarlarining tanlangan nashrini tayyorlashdi. Namangan viloyatidagi Is'hoqxon To'ra Ibrat memorial majmuasi tashkil etilgan. Ushbu majmua bog'-xiyobon, uning o'rtasida Is'hoqxon to'ra Ibratning haykali, milliy me'morchilik uslubidagi ayvon, bosmaxona, ilg'or texnologiyalar asosida qurilgan musiqali favvora, chet tillarga ixtisoslashtirilgan 400 o'rinli maktab internat va tarixiy me'morchilik obidasida barpo etilgan muzeyni o'z ichiga oladi. «O'zbekkino» Milliy agentligi buyurtmasiga binoan «Kinomaniya» studiyasi tomonidan «Ibrat» badiiy filmi suratga olindi. Unda shoir, tarjimon, tarixchi va tilshunos olim, jadidchi Is'hoqxon Ibratning mashaqqatga boy hayot yo'li tasvirlangan.

Ma'lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat tarix sahnasiga ma'rifatparvar shaxslar - jadidlarni olib chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy kabi qomusiy bilim egalari ana shular jumlasidandir. Ular o'z bilimlarini millat ravnaqi, jamiyat rivoji yo'lida sarflashga intildi, o'rni kelganda mablag'ini ham ayamadi. Ular orasida Farg'ona jadidchilik harakati vakili Is'hoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibratning alohida o'rni bor.

Tahlil va natijalar. Zamondoshi Ibrohim Davronning tasdiqlashicha, Is'hoqxon zo'r xattot, husnixatni mukammal egallagan kalligrafdir, u bu sohada yaratgan "shoyon bir san'ati (asari)" uchun 1907-yili katta mukofotga sazovor bo'lgan. Bu haqda Ibrohim Davron quyidagilarni yozadi: "U (Is'hoqxon to'ra) ham xattoti a'zamdur. Chunki musulmoncha xat yozmoqdan o'n yeti nav' yozuv birla Qalam yurguzurlar. Bu osori qalamiya va aqliyasidan namunai zoti, demakki, shoyon bir san'ati o'rgan yil, 1907-yilda janobi Turkiston ginirol-gubiratorig'a taqdim qilinib, shoyistaligiga ikkinchi daraja pocho'tmoy xalat (pochyotniy xalat) olgan edilar". ("Turkiston viloyatining gazet", 1908, 56-son). Is'hoqxon Ibrat bilim doirasining ancha kengligi bilan ham zamondosh shoirlar va olimlardan ajralib turadi. Ibrat mehnatkash xalq boshidagi og'ir hayot, qashshoqlik, mamlakatning qoloqlikda, xalqning nodonlikda qolganining sabablarini aniqlashga, undan qutqarish yo'llarini topishga harakat qildi. Bir necha tarahqiy etgan mamlakatlarda bo'lgan Ibrat xalqni zulmatdan, mamlakatni qoloqliqdan qutqaruvchi birdan-bir yo'l ilmi-ma'rifatni egallash deb tushundi. Darhaqiqat, Is'hoqxon to'ra Ibrat ma'rifatparvarligining tub mohiyati shundaki, u har bir voqea-hodisaga o'z xalqi, Vatani manfaatlarini nuqtai nazaridan turib munosabatda bo'ldi, baholadi. Kelajak avlodning taraqqiy etgan millatlar qatorida erkin, mustakil, farovon hayot kechirishini orzu qildi va unga katta umid bog'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida bo'lgan ulug' adib Is'hoqxon Ibrat nafaqat tarixchi, shoir, tilshunos, noshir va o'qituvchi, balki o'z davrining yetuk diniy ilmlar ulomosi, qozisi va eng birinchi galda vatan ravnaqi uchun fidoiylilik bilan kurashib, butun umr intilgan tarixiy shaxsdir.

Shoir XIX asr oxirida mamlakatda boshlangan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni to'g'ri anglagan, odamlarni yuksak ideal sari intilishi, milliy uyg'onishi, o'zligini tanishi, buning uchun fan-texnika sohasi yangiliklari, ilm, ta',lim-tarbiyani samarali tashkil etish, turmushni sog'lom aqida va teran tafakkur asosida qurish lozimligini targ'ib qilgan. Shu bois uning boy madaniy merosi, nafaqat mamlakatimizda, hatto chet ellarda ham puxta tadqiq etilmoqda. Shu sababli uning ma'naviy va axloqiy qarashlari hozirgi yoshlar uchun juda muhim ta'lim jarayonlaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, Is'hoqxon Ibrat Vatan va millat ravnaqi uchun o'z hayoti, ijodi va faoliyati misolida "mingdin bir" odamga nasib qiladigan "nishona" qoldirdi, nomiga mos chinakam ibrat namunasi bo'ldi. Is'hoqxon Ibrat "Tarixi Farg'ona" asarida shunday deydi: "Loaql kishi o'z mutavattin yerini bilmak zaruriyatdandur. Bilmasa, tafosir va ahodislarda va tavorixlarda mubayyindur: ko'rmak va bilmak ilmdandur. Chunonchi, bu bizni mutavattin bo'lib turgan Turkiston muzofotida Farg'ona deb mashhur va bu lafz ilan mazkurdur, muni ta'rix qadimiyalarda bo'lsa hamki kimlar o'tgan va kimlar tarafidan bino bo'lg'onligi hech kimni ma'lumi bo'lmay, Farg'ona ismi ilan iktifo qilganlar. Binobarin, bu adim ul-istito'at Farg'ona ahliidan bo'lib, bu Farg'ona ahlig'a o'z iqlim va mamlakatlarin ta'rixini bildurmak bo'lib va ham man vazzaha mu'minan fakaannama ahyahu (Kimki mo'min odamni yaxshilikka yo'llasa, tushunmagan narsasini tushuntirsa, bamisoli uni qayta tiriltirgan kabidir) mo'jibincha bir ta'rix qoldirmoq maqsadim bo'lib, ta'rixlar jam qilib,

millatga yodgor qoldurdum. Va ham siyosiy tarafig'a bu kitob munosib zabon va asbobi ovon bo'lib, zarurligi ma'lum o'ldi. Binobarin, bir necha vaqt umrni tarixlarga masruf etdim va bu yerga yetdim. Farg'ona bir shahri qadim va aholiyi nadimdurki, avvali Iskandari Rumiyan va Qubod va Afrosiyobdan qolgandur. Muni atiyul bayon Ravshan qilinur. Holo ismini tahqiq qilib bo'lib, so'ngra bin ova obodonining yozamiz. "Ajoyib ul-buldon" ta'rixida mazkurdurki, Iskandari Rumiyan Aqsoyi sharifda zulumatga brogan vaqtlarida Farg'ona bahodir degan umarolaridan birini qo'yib ketib, ul kishi obod qilgan ekan. Ul kishi nomiga musammo bo'lgan deydu. Ammoki, "Ravzat us-safo" ("Soflik bog'i")da No'shiravon (adolati bilan mashhur bo'lgan Ajam podshohlaridan) otasi Qubod (ba'zi tarixlarda Kayqubod, Ajam podshohlaridan) podshoh vaqti vafotiga yaqin Turkiston mamlakatining No'shiravon o'g'liga ta'yin qilib, Farg'onani aksar joylarini ul obod qilgon ekan. Qubo (Farg'ona viloyatidagi Quva shahri)ni Qubod o'zi bino qilgan ekan. Farg'ona poytaxti ul vaqtda Qubo ekon. Va ba'zi vaqtlarda Axsikent poytaxti bo'lgon ekon... voqeasi minba'd yoziladur. Valhosi Farg'onaga tarixlarda ko'b so'zlar yozilgon ekon. Bu jumladan, "Tarixi mulhiqotu-s-saroh"da iborati arabiy ilan bul tariqa yozadur: "Bilod ul-Farg'ona diyorun xasibun vosi'atun. Va baqou niam riyozuho mari'atun va arosuho vasi'atun. Va min atyabi amakiniha havvon va a'zobiha ma'an va asro'uha naman va adrokiha simoran va abrokuha mazoran baldatu Ush va biha jabalani mutabarrikani. Barokatun va Hanafun. Va havolay Barokatin mazorat ul-abror va-s-suloho va qabru Asaf bin Burxayo va vazir Sulaymon bin Dovud alayhissalom va biha indan-nabsi mashhad Qutaybata bin Muslim biqaryati Gulja. Va mashhadani mashhadu-r-ruus va mashhadu-n-nufus Bopisid silon. Va yuqolu biha alfon va sab'a mia min as-sahobati va-t-tobi'iyin ja ava izzatu arsilhihim amir ul-mu'minin Usmon bin Affon roziyallohu anhum va amri alayhim Muhammad bin Jarir. Fastashidu va ismatuhu jami'an va-l-qissatu ma'rufatun. Ba mashhadu Abdulloh bin Jabal baynal Qubo va-l-Ush va shahri Nav. Va mashhadu Abdulloh bin Ali bin Husayn bin Ali bin Abi Tolib karramahullohu vajhahu ba Xo'qand qariybun min Sayhun mashhur. Mashhad maydonun bihi Beshariq va mashhadu Elik Najr al-moziy toyiballohu qurrahu bo Vuzjand". Tarjimas: "Farg'ona mamlakati serhosil keng diyoridir. Bog'lari katta turli ne'matlarga to'la. Unda havosi musaffoligi, suvlari mazaliligi, mevalari shirinligi, muqaddas mozorlari bilan mashhur O'sh shahri bor. U yerda Baroka va Hanaf degan ikki muqaddas tog' bor. Barokaning yaqinida abroru aslaflarning mozorlari, Sulaymon bin dovud (a.s.) ning vaziri Asaf bin Burayxo qabri joylashgan. Qutayba ibn Muslimning qabri esa unga (O'shga) tegishli Gulcha qishlog'ida. Silon Bopisid degan joyda lashkarboshilar va askarlar dafn qilingan ikki mozor bor. Aytishlaricha, xalifa Usmon ibn Affon buyrug'1 bilan Muhammad ibn Jarir oshchiligida 1700 sahoba va tobeinlar bu yerga yuborilgan. Ularning barchalari shahid bo'lib, shu yerga dafn qilinganlar. Abdulloh bin Jabal qabri Quva va O'sh shahrlari orasidagi Nov shahrida. Abdulloh bin Ali bin Husayn bin Ali bin Abi Tolib qabri esa Xo'qonda, Sayhun yaqinida. Yana Beshariq va Elik Najr qadimda ulardagi qabrlari bilan mashhur edilar. Olloh Vuzjanddagi qishloqlarni ham obod aylasin", deb Farg'ona atrof va aknoqlarindagi sahobai izom va avliyoi kiromlarni bayon qilgon ekon.

Asarning 103-betida xattot tomonidan: "Bizdan so'ngra boqiy qolmish ummati rasulolloh va qur'oni avlodlarimizga va axbobi zaviy al-ehtiromlarga yodgorlik uchun, agarchi xatim tamom nuqsonlari yo'q, kitobat bo'lmasa ham olloh taolo, bir oy yodvoriy nishona uchun yozdum. Bir necha oylar xunoba botub bo'lsa ham ko'rgon va eshitgon zoti ahboblardir umidi duo uchun mani haqqimga yod qilib duo

qilgonlarni ham olloh taolo rahmat aylab shul olloh taolo alayhi vassallam, payg'ambarimiz shifoatlaridan nasib qilsun, omin", -kabi yozuvlar saqlanib qolgan.

Ibrat o'z davrining tarixiy an'alariga muvofiq risola yozishda avval umumjahon tarixini odam atodan boshlab, keyin mahalliy tarix yozishga kirishadi hamda Xo'qon xonligi tashkil topguniga qadar bo'lgan tarixiy asar muqaddimasida yoritib beradi. Unda Ibrat asar yozishdan maqsadini: "...baqadri ilmi bashariyat tarixdan bilmog'1, labudda o'lmoqi ma'lumdir, loaqal kishi o'z muvattin (tug'ilgan) yerini bilmak zaruriyotdandir. ...tafsir va hadislarda va tarixlarda mubayyindurki, ko'rmak va bilmak ilmdandur", deydi va "Farg'ona ahliga o'z iqlim va mamlakatlarin tarixini bildirmak", ekanligini bayon etadi.

Asarda muallif Farg'ona vodiysining qadimiy davrlaridan to uning Rossiya tomonidan zabt etilishi, natijada 1914-yillarga kelganda aholining aksar qismining ommaviy qarzdorlikka muhtalo bo'lishiga qadar vodiya yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni izchillik bilan yoritib beradi. Bu voqealarning aksariyati uning hayoti davomida bevosita kuzatishlari asosida yozilgan bo'lsa, o'tmish davrlarga oid fakt va ma'lumotlarni o'zidan oldin o'tgan muarrixlar asarlariga suyangan holda bayon etadi.

Ibrat tarixiy asarlarga muhabbatini ba'zi vaqtlarda tarix bilan shug'ullanib, bo'lib o'tgan tarixiy hodisalar uni hayratlantirgani va qiziqish uyg'otganligini, so'ngra tarix yozishga kirishganligini bayon qiladi.

Is'hoqxon Ibrat "Tarixi Farg'ona" asarida tarixiy voqealarga xon va beklarning munosabatini tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Muallif Buxoro amiri Nasrulloning 1842-yilda Xo'qonda mash'um qatli om uyushtirishiga qarshi chiqib, Xo'qon xonligi bilan birlashish va yaqinlashib kelayotgan rus bosqinining oldini olish harakatlarini qilish taklifi bilan chiqqan amir Nasrullo vazirlaridan biri Abdusamad noyibning oqilona so'zlarini keltiradi: "Holo Xo'qand zabt o'ldi, Farg'ona katta mamlakatdur, qancha askar va sipohu xazina sarf o'lub olindi, alholda Rusiyani kelmagi mahalliy xavfdur, agarda xonni onti aqd berub, tavba qiddurub, Xo'qandga qo'yub, Buxoroga tobe' qilib, bir mulk bizlarga kelgan dushmanlarga bir qalqon bo'lur edi", -deganida, so'zi amirga ma'qul bo'lmay, og'ziga kafsh bilan urdurg'on ekan».

Olim Is'hoqxon Ibrat ushbu so'zlarni keltirish orqali xonliklar, amirliklar ma'muriyatida uzoqni ko'ra oluvchi davlat arboblari mavjudligini ta'kidlash bilan birga, Nasrullo kabi kalabin, burnidan narini ko'ra olmaydigan xonu beklarni qattiq qoralaydi.

Xulosa va takliflar. Ibrat asarda arablarning Farg'ona vodiysiga bosqinchilik yurishi, har bir shahar aholisining ularga qarshilik harakati, Safed Bulon mozorida 2700 sahoba va sahobai tobeynlarning shahid qilinishi haqida fikr yuritadi. Bu haqdagi ma'lumotlarni u "Mulhaqot us-Suroh" va "Tarixi shoh Jarir" asari bo'yicha bayon etganligini ko'rsatadi. Uning bu xulosalari Sh.H.Xolisning "Safed-Bulon qissasi" nomli risolasida ham keltirilgan bo'lib, Safed Bulon mozori, o'sha davrdagi toshlar va unga bitilgan yozuvlar bugungi kunda ham mavjudligi fikrimizning dalilidir.

Muallif muqaddimasiga xulosa sifatida vodiyni Rusiya tomonidan bosib olinganligi, uning idoraviy uslubini yoritish bilan o'z fikrlarini yakunlaydi.

Is'hoqxon Ibrat o'z xalqining porloq kelajagiga, ozod va hur hayot qurajagiga zo'r umid va ishonch bilan qaradi. "Tarixi madaniyat" asarida Vatanning kelajakda ilm-fan, madaniyat rivojlangan shaharlarining qiyofasini romantik bo'yoqlarda tasvirlaydi. Uning ilmiy-tarixiy asarlari Vatanimiz tarixini o'rganishda, shubhasiz, zarur, mo'tabar manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Vohidova K.A. Is'hokxon Ibrat hayoti va ilmiy merosi haqida // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2018. 1-son, -B.206-211.
2. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. Tanlangan asarlari. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2005. – 200 b.
3. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. - T.: Sharq, 1994.
4. Oqilxon Dadaboyev, Xotam Mamadaliyev. "Is'hoqxon Ibrat vorislarining yutuqlari". O'zA.
5. Ziyoyev H. Istiqlol – ma'naviyat negizi. – T.: Ma'naviyat, 1999. 190 b.
6. Is'hoqxon Ibrat nomli jamoa xo'jaligi madaniyat ishlari bo'yicha rais muovini Nizomov B. bilan Vohidova K.tomonidan o'tkazilgan suhbat materiallari. 1994.
7. Is'hoqov R. Nizomova J.lar bilan o'tkazilgan suhbat matni. 1994. Mart-aprel; Nizomov B. bilan o'tkazilgan suhbat matni. 1994. Mart; Nazarov R. bilan o'tkazilgan suhbat. 1994. Mart. Suhbatlarni Vohidova K.A.uyushtirgan.
8. Gaffarov Ya.O. Usmonga yozilgan xatlardan. Ushbu xat nusxasi qo'limizda saqlanadi (arab yozuvida). –Namangan, 1961.
9. Yulchiyev K. Is'hoqxon To'ra Ibrat. O'quv-metodik ko'rsatma. – Farg'ona, 2018. – 56 b.
10. Sariboyeva M. Ibratning ibratli yo'li // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2019. 8-son, -B. 322-329.